



Fizik-elektronika bo'yicha 8-Xalqaro konferensiya o'tkazildi

2021-yil 23-24-sentyabr kunlari Toshkentda O'zR FA U.A.Arifov nomidagi Ion-plazma va lazer texnologiyalari institutida xorijiy olimlar ishtirokida fizik-elektronika bo'yicha 8-Xalqaro konferensiya o'tkazildi. Unda respublikamiz va dunyoning turli mamlakatlaridan 200 yaqin soha mutaxassislari onlayn ishtirok etdi.







Konferensiyada fizik elektronika, lazer fizikasi, materiallarni olish va modifikatsiyalashning ion-dastali va plazmali texnologiyasi, quyosh energiyasi va elektronika uchun yangi texnologiyalar va materiallar, fotonikaning dolzarb muammolari, shuningdek, nanomateriallar fizikasi va texnologiyasi masalalari ko'rib chiqildi.

Bundan tashqari, konferensiya ishida materiallarni olish va modifikatsiya qilish, strukturaviy va yarimo'tkazgichli materiallarni olish va qayta ishlash bo'yicha ion-dastali va plazmali texnologiyasining yangi yutuqlari, ikkilamchi emissiya va optik spektroskopiya usullari yordamida qattiq jismlar yuzasini o'rganish natijalari taqdim etildi va muhokama qilindi. Fizik elektronika sohasida innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish va yangi materiallarni yaratish bo'yicha taqdimotlar o'tkazildi. O'zbekiston iqtisodiyotining muhim muammolaridan biri bo'lgan - quyosh energetikasi va elektronikasi uchun yangi materiallarni olish texnologiyalari bilan bog'liq mavzular bo'yicha ishlar taqdim etildi. Bu yo'nalishda yangi materiallar samaradorligini oshirishga ko'proq e'tibor qaratish va arzonroq texnologiyalar va materiallarni ishlab chiqish, shuningdek, organik quyosh batareyalarini olish bo'yicha fundamental va amaliy tadqiqotlarni kengaytirish kerakligi qayd etildi.

Konferensiya dasturi va ma'ruzalar tezislari to'plami chop etildi.

ОБРАЗОВАНИЕ ФУЛЛЕРЕНА ПРИ РЕЗКОМ ОХЛАЖДЕНИИ СИСТЕМЫ ИЗ АТОМОВ С

красные шарики – атомы С

 <p>Время расчёта: 0,1 наносекунд Температура: 6000 К</p>	 <p>Время расчёта: 2,5 наносекунд Температура: 2500 К Давление: ~ 1 атм Плотность: 0,0798 кг/м³</p>
--	--

23-24 сентября, 2021 Ташкент, Узбекистан

